

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH

Laziza Omonqulova Sirojiddin qizi

Toshkent viloyati Olmazor tumani, dotsent, L.Kariyeva

Omonqulovalaziza5@gmail.com

(+998880013012)

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, “yashil iqtisodiyot”ga o'tish zaruriyati, omillari, tamoyillari tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasining maqsadi, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlarining mazmuni bayon etilgan

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, tabiiy resurslar, O'zbekiston iqtisodiyoti, yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya

Bugungi kunga kelib nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyo bo'yicha yashil iqtisodiyotning o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega.

O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda “yashil

iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida muvaffaqiyatlarga erishgan davlatdir. Texnikalar, atrof-muhitni himoya qilish, algoritmik texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlar jarayonlarida faol ishlaydigan mutaxassislar O‘zbekistonning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida katta o‘rin tutadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini rivojlantirishga e’ibor qaratgan holda, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar, muhandislik va inshootlarni rivojlantirish maqsadida ko‘lab loyihalar amalga oshirilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan «Barqaror rivojlanish» konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXII asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o‘lishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo‘nalishlari: qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurilish sohaslarining barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi. Hozirgi vaqtda samarali, resurs tejovchi va ekologik havfsiz iqtisodiyotni rivojlantirish jahon va milliy iqtisodiyotlarning ajralmas qismiga aylanmoqda, bu milliy qonun hujjatlariga yangi ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza qilish standartlari joriy etilishini rag‘batlantiradi, “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror taraqqiyotga o‘tishga va sifat jihatidan yangi raqobatbardosh muhitni shakllantirishga ko‘maklashadi. “Yashil iqtisodiyot” – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXII asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lishi kerak. Yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta’sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo‘lmaydi;

-resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;

- Yer yuzasida hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish – bu umumjahon trendi bo'lib, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotlarning, balki umuman butun jahon iqtisodiyotining barqarorligini belgilab beradi, "yashil iqtisodiyot"ni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo'lidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlari ajratiladi:

1. Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish;
2. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
3. Suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish;
4. "Sof", "barqaror" yoki "yashil transport"ni rivojlantirish;
5. Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish;
6. Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish;
7. Ekotizimlarni saqlab qolish va boshqaruv samaradorligini oshirish;
8. "Yashil texnologiyalar"ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq:

- "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishdagi bosh muammo "yashil iqtisodiyot" tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo'shimcha investitsiyalar yo'naltirish yoki "yashil o'sish" sifatida soddalashtirish hisoblanadi;

- "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurligini ilmiy asoslashning murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyani tushunarli, soddada tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Jumladan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo'yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda;

- "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi, "yashil

iqtisodiyot” barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;

- barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi; - “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish tadqiqot, texnologiyani rivojlantirish, innovatsiyalar va bilimlarni doimiy ravishda oshirishga sarmoya kiritib borish zarurligini talab qiladi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko‘plab resurslarni ajratilganligini va ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga katta miqdorda sarmoya kiritgan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sish sur‘atlarini tezlashganiga muvaffaq bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga Shimoliy Yevropa davlatlarining tajribasini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar qatoriga Daniya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvesiya kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlar “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda soliq omilidan foydalanganlar. Ammo, barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan va qo‘llab-quvvatlanadigan yo‘nalishlarini aniq belgilash zarurati mavjud hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot va texnologiya innovatsion sa’y-harakatlari resurslar samaradorligiga, shuningdek, oqava suvlarni tozalash va tuzsizlantirish, qayta tiklanadigan energiya, qattiq chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlash, yashil qurilish va binolar, ekologik toza uskunalar va sanoat texnologiyalari kabi sohalarga yo‘naltirilishi kerakligini talab qiladi. Bunga “Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 yildagi 133-sonli qarorini ham yaqqol misol qilishimiz mumkin.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konseptsiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Qarorda belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri “Yashil iqtisodiyot”ni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy

mexanizmlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, "yashil" iqtisodiyotning iqtisodiy mexanizmlari barqaror rivojlanishni ta'minlashda o'z o'rniga ega. Milliy iqtisodiyotni "yashillashtirish" tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirishga, tarkibini diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozoridagi raqobatchiligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi PQ-4477-son Qarori. <https://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi.
2. Навстречу "зеленой" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бесса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендал, 2020. С. 17.
3. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2019. – 176 p.
4. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Darslik. A.E. Ergashev va b. – T.: Baktria press, 2019.-296 b.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X, "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari. Ilmiy elektron jurnal. XXI asr: fan va ta'lim masalalari.